

ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION YONDASHUVLAR VA YANGI TENDENSIYALARNING ILMIY-METODIK TAHLILI

M. Ergashov¹, I. Sadullayev²

Annotatsiya:

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda innovatsion yondashuvlar va yangi tendensiyalar haqida fikr yuritilgan. Ta'lim jarayonida ushbu yondashuvlardan foydalanish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari an'anaviy ta'lim tizimi yondashuvlari bilan innovatsion yondashuvlar o'zaro qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: an'anaviy ta'lim, innovatsion yondashuvlar, VR, aralash ta'lim, loyiha asosida o'qitish, jigsaw metodi, krossover o'qitish, shaxsiylashtirilgan ta'lim.

doi: <https://doi.org/10.2024/4e3wny83>

An'anaviy ta'lim tizimida ko'pgina holatlarda zerikarli sinfda o'qituvchining ovozi aks-sado berib, ularning gaplariga e'tibor berish uchun majburan darsda ishtirok qilayotgan o'quvchi yoki talabalarni uchratish tabiiy holga aylandi. Hozirgi kunda ko'plab pedagoglar o'z darslarini imkon qadar ushbu stsenariydan uzoqroq tutishga harakat qilmoqdalar, ya'ni ular allaqachon o'quvchilarni o'qitishda turli yondashuvlarni qo'llash orqali o'qishga ko'proq jalb qilishlariga imkoniyat yaratish mumkinligini tushunib yetishgan. Oddiy qilib aytganda, bu jarayon zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar hamda yangi tendensiyalarni talab qilmoqda. Ta'lim sohasi shunchalik tez o'zgarmoqdaki, zamonaviy pedagog doimo zamonaviy strategiyalarga hamohang harakat qilib, ularga moslashishi kerak. Aks holda, ta'lim beruvchiga moslashish qiyin bo'lishi mumkin.

Innovatsion o'qitish usullari nafaqat sinfda eng ilg'or texnologiyalarni qo'llash yoki eng so'ngi ta'lim tendensiyalaridan doimo xabardor bo'lish, balki, ta'lim berish va ta'lim olishning o'ziga xos usuli ham bo'lib hisoblanadi. Ularning deyarli barchasi talabalarga ko'proq e'tibor qaratadigan yangi o'qitish strategiyalaridan foydalanishga imkon yaratadi. Ushbu innovatsion yondashuvlar talabalarni dars davomida tengdoshlari va o'qituvchi bilan muloqot qilishga undash orqali dars jarayonida faol ishtirok etishlarini ta'minlashga xizmat qiladi. Talabalar o'z ustida ko'proq ishlashlari kerak, ammo, bu ularning ehtiyojlarini yaxshiroq qondiradigan va tezroq o'sishiga yordam beradigan ta'lim jarayoni negizida bo'lishi juda muhim.

Dunyoda an'anaviy sinf xonalardan onlayn va gibril o'qitish shakliga o'tib ta'lim berish tajribasi ommalashdi. Biroq, noutbuk ekranlariga tikilish bilan birga o'quvchilarning diqqati yo'qolishi va boshqa biror mashg'ulotga chalg'ishi (ehtimol o'zining shirin orzulari ortidan xayol surish) osonroq bo'lishini anglatadi, bundan tashqari bu jarayon diqqatni jamlagandek ko'rsatish qobiliyatidan boshqa hech narsa emas. Bularning barchasi talabalarning o'qimaganlikda ayblash uchun asos bo'la olmaydi, vaholanki, o'quvchilarni to'ydiradigan zerikarli va sifatsiz dars jarayonini tashkil qilmaslik ham o'qituvchining mas'uliyati hisoblanadi. Ko'pgina ta'lim muassasalari, o'qituvchilar va murabbiylar

¹ *Ergashov Mansur Yarashovich, Buxoro davlat pedagogika Tabiiy fanlar kafedrası professori*

² *Sadullayev Ibrat Shuxratovich, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti*

o'quvchilarni qiziqtirishi va faolligini oshirish uchun yangi innovatsion o'qitish strategiyalarini sinab ko'rishmoqda. Raqamli texnologiyalar esa ularga talabalarning ongiga kirishga yordam beradi va talabalarga darslarda faol ishtirok qilish imkonini taqdim qiladi. Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, ta'limdagi o'rganish usullarini qayta ko'rib chiqish vaqti kelganligini anglash qiyin emas!

Innovatsion o'qitish usullarining afzalliklari

Tadqiqotni rag'batlantirish – o'rganishga innovatsion yondashuvlar o'quvchilarni o'z ongini kengaytirish uchun yangi tushunchalar va vositalarni kashf etishga undaydi.

Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish - ijodiy o'qitish usullari talabalarga o'z tezligida o'rganish imkonini beradi hamda ularni darsliklarda yozilgan javoblarni topish o'rniga muammoni hal qilishning yangi usullarini qidirishga chorlaydi.

Bir vaqtning o'zida juda ko'p bilim olishdan saqlanish - yangi yondashuvlardan foydalanadigan o'qituvchilar ham talabalarga ma'lumot beradi, lekin ular uni kichikroq qismlarga bo'lish orqali amalga oshiradi. Shunda yangi bilimlarni hazm qilish qulayroq bo'lishi mumkin va qismlarga bo'lib o'rganish o'quvchilarda ko'nikma tezroq hosil bo'lishiga yordam beradi.

O'z-o'zini baholashni yaxshilash – o'qituvchilarning qo'llayotgan metodlari bilan talabalar nimani o'rganganlarini va nima yetishmayotganini tushunishlari mumkin. Talabalar bilishlari kerak bo'lgan narsalarni mavjud va ko'p ekanligini anglagan holda nima uchun muayyan narsalarni o'rganish zaruriyatini tushunishlari hamda buni amalga oshirishga ko'proq ishtiyoqlarini oshirishlari mumkin.

Sinf xonalarini jonlantirish – dars xonasi o'qituvchi ovozi yoki noqulay sukunati bilan to'la bo'lishiga yo'l qo'ymaslik zarur. Bunda innovatsion o'qitish usullari o'quvchilarga zavqlanib ta'lim olish uchun turli xil imkoniyatlarni beradi, ularni gapirishga va ko'proq muloqot qilishga undaydi.

Innovatsion ta'lim usullari

1. Interfaol darslar. Talabalar bu dars jarayonida innovatsion o'quvchilardir! Hozirgi kunda bir tomonlama darslar juda ommalashgan bo'lib, har ikkala tomonni ham ba'zan charchatadi, shuning uchun o'quvchilarni gapirish va o'z fikrlarini ifoda etishga undaydigan muhit yaratish juda muhim. Talabalar sinfdagi mashg'ulotlarga nafaqat qo'llarini ko'tarish yoki javob berishga chaqirish orqali emas, balki ko'p jihatdan qo'shilishlari mumkin. Bugungi kunda ortiqcha vaqtni tejash, darsda faol talabalar sonini oshirish uchun interaktiv sinf mashg'ulotlarini o'tkazishga yordam beradigan bir nechta onlayn platformalarni topish mumkin. Masalan, spinner g'ildiraklari bilan jonli viktorinalar, o'yinlar o'ynash, turli so'rovlar yoki birgalikda aqliy hujum orqali butun sinf o'quvchilarini zavqlantirish mumkin. Barcha talabalarni yuqoridagi kabi onlayn platformalar yordamida darsga qiziqitishish imkoniyati mavjud. Bulardan tashqari, talabalar qo'llarini ko'tarish o'rniga javoblarni anonim ravishda yozishlari yoki tanlashlari mumkin. Bu ularni darsda ishtirok etishga, o'z fikrlarini bildirishga hamda eng asosiysi endi "noto'g'ri" javob berib qo'yishdan tashvishlanmaslik uchun ishonch hosil qiladi.

2. Virtual reallik texnologiyasidan foydalanish. Virtual haqiqat texnologiyasi bilan sinf ichida butunlay yangi dunyoga kirish mumkin. Bunda talabalar 3D kinoteatrda o'tirish yoki VR o'yinlarini o'ynash orqali o'zlarini turli obyektlarni tekis ekranda ko'rish o'rniga "haqiqiy" obyektlar bilan muloqot qilishlari mumkin. Ya'ni talabalar bir necha soniya ichida boshqa mamlakatga sayohat qilishi, Somon yo'lini o'rganish uchun koinotga chiqishi yoki bir necha metr uzoqlikda turgan dinozavrlar bilan yura davri haqida qiyinchiliksiz bilib olishi mumkin.

3. Aralash ta'lim. Aralash ta'lim an'anaviy sinfda o'qitish va yuqori texnologiyali onlayn o'qitishni birlashtirgan usuldir. Bu pedagoglar va talabalarga samarali o'quv muhitini yaratish va o'rganish tajribasini moslashtirish uchun ko'proq imkoniyatlarni taqdim qiladi. Biz yashayotgan texnologiyaga asoslangan dunyoda internet yoki elektron ta'lim dasturlari kabi kuchli vositalarni e'tiborsiz qoldirish qiyin. O'qituvchilar va talabalar uchun video uchrashuvlar, kurslarni boshqarish uchun LMS, o'zaro muloqot qilish va o'quv maqsadlariga xizmat qiluvchi ko'plab ta'limiy ilovalar dunyoni egallab oldi.

4. Loyiha asosida o'qitish. Bu yondashuvda barcha talabalar loyihalar ustida ishlaydi. Loyihaga asoslangan ta'lim asosan loyihalar atrofida aylanadi hamda talabalarga haqiqiy muammolarni hal qilish va ma'lum vaqt davomida yangi yechimlarni topish imkonini beradi. PBL darslarni yanada qiziqarli qiladi, talabalar yangi mazmunni o'rganadilar va tadqiqot qilish, mustaqil va boshqalar bilan ishlash, tanqidiy fikrlash va hokazo kabi ko'nikmalarni rivojlantiradilar. Ushbu faol o'rganish usulida o'qituvchi yo'lbo'shchi bo'lib harakat qiladi va o'quvchilar o'rganish sayohatlarini o'z zimmlariga oladilar. Shu tarzda o'rganish jarayoni yaxshi ishtirok etish va tushunishga olib keladi, ularning ijodkorligini faollashtiradi hamda umrbod ta'limni rag'batlantiradi.

5. So'rovga asoslangan ta'lim. So'rovga asoslangan ta'lim ham faol o'rganish turidir. O'qituvchi ma'ruza o'qish o'rniga savollar, muammolar yoki ssenariylarni taqdim etish orqali darsni boshlaydi. Shuningdek, u muammoli ta'limni o'z ichiga oladi va o'qituvchiga ko'p tayanmaydi; bu holda pedagog ma'ruzachi emas, balki fasilitator bo'lishi ehtimoli ko'proq. Talabalar javob topish uchun mavzuni mustaqil yoki guruh bilan tadqiq qilishlari kerak. Bu usul ularga muammoni hal qilish va tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

6. Jigsaw metodi. Jigsaw - bu oddiy o'yin usuli hisoblanadi. Agar o'qituvchi Jigsaw texnikasini darsda qo'llamoqchi bo'lsa, avval talabalar kichik guruhlariga ajratiladi hamda har bir guruhga asosiy mavzuning rejalaridan biri (quyi kategoriyasi)ni berishi kerak. Keyin berilganlarni o'rganish va o'z g'oyalarini rivojlantirish haqida ko'rsatma beriladi. Har bir guruh o'z xulosalarini baham ko'radi, bu esa ular bilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha barcha bilimlardan iborat bo'lgan katta tasvir (tushuncha)ni yaratadi. Keyingi qadamda talabalar boshqa guruhlarining ishlarini baholash va sharhlashlari uchun fikr-mulohaza seansi o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shunday qilib, har bir mavzuni alohida talabalar guruhiga tayinlash va sheriklariga topgan ma'lumotlarini o'rgatishdan oldin ularga alohida ishlashga ruxsat berish mumkin.

Masalan: Ekologiya fanida jigsaw faoliyati - sinfga "ob-havo" kabi tushuncha bering. Guruhlar fasllar haqida gapirish uchun sifatlar to'plamini, yaxshi-yomon ob-havoni yoki ob-havo qanday yaxshilanishini tasvirlash uchun birikmani va maxsus manba (kitob)lardan ob-havo haqida yozilgan jummalarni topishlari kerak;

Biografiya fanida jigsaw faoliyati - Muayyan sohada jamoat arbobi yoki xayoliy qahramon tanlab olinadi va o'quvchilardan u haqida ko'proq ma'lumot topishlarini so'raladi. Misol uchun, ular Isaak Nyutonning asosiy ma'lumotlarini, bolaligi va o'rta yillarida sodir bo'lgan muhim voqealarni (shu jumladan mashhur olma voqeasi) va merosini aniqlash uchun tadqiqot qilishlari mumkin.

Tarix fanida jigsaw faoliyati - Talabalar tarixiy voqea, ya'ni ikkinchi Jahon urushi haqidagi matnlarni o'qiydilar va bu haqda ko'proq tushunish uchun ma'lumot to'playdilar. Kichik mavzular taniqli siyosiy arboblari, asosiy jangchilar, sabablar, vaqt jadvallari, urushdan oldingi voqealar yoki urush e'lon qilinishi, urushning borishi va boshqalar bo'lishi mumkin.

7. Takrorlanuvchi sinf xonasi. Bunda mashg'ulotlardan oldin talabalar ayrim asosiy tushuncha va bilimlarga ega bo'lish uchun videolarni tomosha qilishlari, materiallarni o'qishlari yoki tadqiqotlar o'tkazishlari kerak. Dars vaqti odatda darsdan keyin bajariladigan

“uy vazifasi” deb ataladigan ishlarni bajarishga, shuningdek, guruh muhokamalari, bahs-munozaralari yoki talabalar tomonidan boshqariladigan boshqa tadbirlarga bag‘ishlanadi. Ushbu strategiya talabalarga yo‘naltirilgan bo‘lib, o‘qituvchilarga shaxsiylashtirilgan ta’limni yaxshiroq rejalashtirish va talabalar faoliyatini baholashda yordam berishi mumkin.

8. Tengdoshlarni o‘qitish. Bu ham jigsaw texnikasi yondashuviga o‘xshaydi. Talabalar bilimni aniq tushuntira olsalar, o‘zlari yaxshiroq tushunadilar va o‘zlashtiradilar. Taqdim etishda ular oldindan yoddan bilib olishlari va eslaganlarini baland ovozda gapirishlari mumkin, ammo tengdoshlariga o‘rgatish uchun ular muammoni yaxshilab tushunishlari kerak. Talabalar fan doirasida o‘zlarining qiziqish sohasini tanlash orqali ushbu faoliyatda yetakchilik qilishlari mumkin. Talabalarga bunday avtonomiya berish ularda mavzuga egalik hissini va uni to‘g‘ri o‘qitish mas’uliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, talabalarga sinfdoshlariga dars berish imkoniyatini berish orqali ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirishiga, mustaqil o‘rganishni rag‘batlantirish va taqdimot ko‘nikmalarini yaxshilashga erishish mumkin.

9. Krossover o‘qitish. Barchaga maktab davrida muzeyga, ko‘rgazmaga yoki sayohatga borish qanchalik hayajon va zavq bag‘ishlashi sir emas. Tashqariga chiqish va sinfdan doskaga qarashdan farq qiladigan mashg‘ulot bilan shug‘ullanish har doim o‘z samarasini ko‘rsatgan. Krossover o‘qitish o‘z navbatida sinfdan ham, tashqarida ham o‘rganish tajribasini birlashtiradi. Maktabdagi tushunchalarni birgalikda o‘rganib, so‘ngra ushbu kontsepsiyani haqiqiy muhitda qanday ishlashini ko‘rish mumkin bo‘lgan ma’lum bir joyga tashrif buyurish bu metodning asosiy sharti hisoblanadi. Bunda safardan keyin darsda muhokamalar o‘tkazish yoki guruh ishlarini belgilash orqali darsni yanada rivojlantirish yanada samaraliroq bo‘ladi. Bundan tashqari virtual krossover o‘qitishdan ham bimalol foydalansa bo‘ladi. Ba’zan, tashqariga chiqish har doim ham mumkin emas, aynan shu hollarda turli san’at muzeylari, turistik obyektlar va geografik manzillarga virtual sayohat uyushtirish mumkin.

10. Shaxsiylashtirilgan ta’lim. Bunda ta’lim strategiya ba’zi talabalar uchun ishlayotgan bo‘lsa-da, boshqa guruh uchun u unchalik samarali bo‘lmasligi mumkin. Misol uchun, guruh faoliyati ekstrovertlar uchun juda yaxshi, lekin o‘ta introvert talabalar uchun noqulay ta’lim muhiti bo‘lishi mumkin. Bu usul har bir o‘quvchining o‘quv jarayonini moslashtiradi. Asosiysi rejalashtirish. tayyorgarlik ko‘rish uchun ko‘proq vaqt ajratish orqali o‘rganish talabalarga o‘z qiziqishlari, ehtiyojlari, kuchli va zaif tomonlari asosida yaxshiroq natijalarga erishish uchun yordam beradi. Har bir talabaning o‘rganish salohiyati har xil bo‘lishi mumkin, ammo yakuniy maqsad bir xil bo‘lib qolaveradi; Bu yondashuvda o‘quvchini kelajak hayot uchun qurollantiradigan bilimlar bilan ta’minlash asosiy omil hisoblandi.

Innovatsion o‘qitish pedagogikasi ta’lim olish va ta’lim berishda an’anaviy usullardan tashqariga chiqadigan zamonaviy va ijodiy yondashuvlarni nazarda tutadi. Masalan:

- Loyiha asosida o‘qitish: Talabalar qiziqarli va murakkab savol, muammo yoki muammoni tekshirish hamda ularga javob berish uchun uzoq vaqt ishlash orqali bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

- Muammoli ta’lim: loyiha asosidagi ta’limga o‘xshash, lekin bu asosan o‘quvchilarning ba’zi tanlovlari va o‘quv jarayoniga egalik qilish imkonini beruvchi murakkab muammoga qaratilgan.

- So‘rovga asoslangan ta’lim: Talabalar taxminlarni so‘roq qilish va tekshirish uchun savollar berish orqali o‘rganadilar. O‘qituvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim berishdan ko‘ra yordam beradi.

Quyida ta’lim jarayonidagi innovatsiyalarga bir nechta misollar keltirib o‘tilgan: o‘rta maktab fan o‘qituvchisi o‘quvchilarga murakkab hujayra biologiyasi tushunchalarini

yaxshiroq tushunishga yordam berishga harakat qildi, shuning uchun u virtual reallik texnologiyasidan foydalangan holda immersiv simulyatsiya yaratdi; Talabalar hujayraning 3D interaktiv modelini o'rganish uchun VR garnaturalari yordamida "kichraytirish"ga muvaffaq bo'lishdi. Ular mitoxondriyalar, xloroplastlar va yadro kabi turli organellalar atrofida suzib yurib, ularning tuzilishi va vazifalarini yaqindan kuzatishlari mumkin edi; Talabalar virtual tajribalar o'tkazishlari mumkin, masalan, molekulalarning diffuziya yoki faol transport orqali membranalar bo'ylab harakatlanishini kuzatish. Ular bu jarayonda ilmiy chizmalarini va izlanishlari haqidagi dalillarni yozib oldilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqoridagi innovatsion yondashuvlar zamonaviy ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylanib ulgurgan. Ushbu innovatsion yondashuvlar kengroq ommalashtirish va yangi tendensiyalarni ta'lim jarayoniga singdirish pedagog olimlar oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Ibrat, S. (2023). Oliy ta'lim muassalari sirtqi ta'lim shaklida elektron ta'lim tizimini joriy etish jtimoiy-pedagogik muammo sifatida. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(16), 497-504.
- [2]. Sadullayev, I. (2022). "Talimda axborot texnologiyalari" fani amaliy mashgulotlarini olib borishda ubiquitous learningdan foydalanish. *Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali*, 2(2).
- [3]. Садуллаев, И. Ш., & Абдураходов, А. А. У. (2021). Электронные информационные образовательные ресурсы как фактор обеспечения качества образования. *Вестник науки и образования*, (8-3 (III)), 71-73.
- [4]. Ergashov M.Y., Jo'rayev A.T. Organik kimyo fani ta'limida zamonaviy metodlardan foydalanish orqali talabalarda interaktivlikni oshirish. *Pedagogik mahurat*. 2021, №3, 130-133b.
- [5]. Ergashov M.Y., Baxriddinov A.X., S.Z.Sattorova. Modulli o'qitish-o'quvchilar o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish texnologiyasi. *Galaxy International Interdisciplinary Research journal (GIIRL)*. Vol.10. Okt.(2022). P.682-686
- [6]. Ergashov M.Y., S.Z.Sattorova. Kimyo fanini o'qitishda virtual ta'lim vositalaridan foydalanish."Pedagogs" *International research journal* Vol.15, August(2022). P.124-130
- [7]. <https://ahaslides.com/blog/15-innovative-teaching-methods/>